



# БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

---

## МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARNING AHAMIYATI

*Murodova F.G'.*

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti*

**Tayanch soʻzlar:** milliy ma'naviy me'ros, xalq ogʻzaki ijodi na'munalari, nutq oʻstirish ishlari, aqliy qobiliyat, nuqtiiy faoliyat, soʻzlashuv, xalq ogʻzaki ijodi, ertak, topishmoq, maqol, matal, ijod, mashgʻulot ishlanma, hikoya qilish.

**Ключевые слова:** национальное духовное наследие, образцы народного устного творче-ства, речевая работа, умственные способности, речевая деятельность, речь, фолк-лор, сказки, загадки, пословицы, притчи, творчество, разработка урока, рассказывание историй.

**Key words:** national spiritual heritage, examples of folk oral creativity, speech development work, mental ability, verbal activity, speech, folklore, fairy tales, riddles, proverbs, parables, creativity, lesson development, storytelling.

Jahon miqyosida yosh avlodni milliy iftixor ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatni rivojlan-tirish, milliy dunyoqarashga ega mustaqil fikrlovchi va oʻz mulohazalarini erkin bayon eta oladigan barkamol shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu maqsadni koʻzlagan holatda innovatsion ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy jihatdan shakllantirishga asos boʻluvchi oʻquv materiallari va ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunda taraqqiyotning global tendensiyasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda jamiyatimiz, ota-onalar va tarbiyalovchilarning oldida turgan eng katta muammolardan biri bu eng avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy ma'naviy meros na'munalaridan xabardor, milliy dunyoqarash va milliy oʻzligiga ega, teran fikrlay oladigan, tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqot qila oladigan, madaniyatli nutq egalarini tarbiyalashda asosiy va birinchi qadamni qoʻyishdir. Chunki bolajonlarimizning aynan 3 yoshdan 7 yoshgacha



bo'lgan davri hamma informatsiyani eslab qoladigan davr hisoblanadi. Bu davrda berilgan ta'lim va tarbiya toshga o'yilgan kabi hech qachon hayotidan o'chib ketmaydi. Aynan shu davrdan boshlab biz yosh avlodga ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan milliy ma'naviy merosimizni tanitishimiz orqali ulug' bobolarimizga mos milliy dunyoqarashga, o'zbekona axloqqa va mukammal nutq madaniyatiga ega ma'rifatli shaxslarni tarbiyalashimiz zarur.

Ayni vaqtda Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslarini uyg'unlashtirgan, tafakkur mahsuli xalq og'zaki ijodi vositasida milliy dunyoqarash va har tomonlama mukammal adabiy nutqqa ega insonni kamol toptirish qonuniyatlarini tadqiq etish insoniyat madaniyatining yuksalish omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda xalq og'zaki ijodi namunalaridan yoshlarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish, ularda nutq madaniyatini tarkib toptirishda foydalanish, qadriyatli yondashuvlar asosida jamiyatni rivojlantirishning me'yoriy- uslubiy ta'minotini ken-gaytirishga zamin yaratadi. Shunga ko'ra, Harakatlar strategiyasida "jismonan baquvvat, ma'naviy va aqliy rivojlangan, erkin fikr yuritadigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, yurtga sodoqatli yoshlarni tarbiya qilish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada o'zbek xalqi pedagogik tafakkuri maxsuli bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar, topishmoqlar, tez aytilishlar maqollar, matallar, o'yinlar, laparlar, qo'shiqlar, latifalar, naqlar, turli bayramlar, marosimlarning mazmun- mohiyatini to'g'ri talqin qilgan holda, tarbiyalanuvchilarda milliy dunyoqarash va nutq madaniyatini shakllantirishning mazmuni, shakllari va metodlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar so'nggi yillarda respublikamiz olimlaridan D.Abdurahimova, F.Qodirova, M.Abdullayeva, N.Abdullayeva, G.Berdaliyeva, D.Boboyeva yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari O.Musurmonova, O.Jamoliddinova, N.Egamberdiyeva hamda M.Quronovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuning uchun biz pedagoglar milliy ma'naviy me'rosimiz vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini yanada takomillashtirish yo'lida izlanishlar olib boryapmiz. Bolalarning nutqini ravon, tezkor va ma'noli bo'lishi uchun xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib rivojlantirishni maqsad qildik. Bolalarning nutqini va milliy dunyoqarashini shakllantirishda xalqning ma'naviy va axloqiy jihatdan boy asarlaridan



foydalanish bolaning har tomonlama rivojlani-shi uchu asosiy manba bo‘la oladi. Masalan: xalq maqollarini olsak, maqol qisqa, lo‘nda, ma’noli, va bundan tashqari eslab qolishga juda osondir. Shuning uchun aynan katta guruhlardagi bolajonlar uchun aynan o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzularga oid xalq maqollarini ham o‘rgatish, uning dun-yoqarashini rivojlantiradi va bolaning aynan shu mavzu bo‘yicha bilimini ham oshirishga, shu mavzuni yaxshiroq anglashiga imkon beradi.

Katta guruhlar va maktabgacha tayyorlov guruhlarining tematikasini oladigan bo‘lsak, ularning birinchi mavzusi “Vatan” shu so‘zni qanchalik qadrli ekanligini, vatan o‘zi nima ekanligini, vatanni sevish qanday ekanligini, vatanga sadoqat nima ekanligini bolajonlarga tushuntirish, ularning ongiga vatan tuyg‘usini shakllantirish uchun xalq maqollaridan ham foydalanish juda muhim.

Vatani borning baxti bor,

Mehnati borning - taxti.

Vatanning tinch - sen tinch.

Vatanni sotgan er bo‘lmas.

Vatansiz inson - kuysiz bulbul.

Shu kabi xalq maqollarining mazmun mohiyati tushuntirish va xalq maqollarini bolajonlarning nutqiga kiritish orqali bolaning so‘z boyligini oshirish va uning tasavvur olamini kengaytirish mumkin.

Chunki xalq maqollari xalqimizning necha yillar davomida orttirgan tajribasi orqali yaratilgan, sayqallangan va bizgacha yetib kelgan, xalq maqollarida avlodlarimizning, xalqlarimizning urf odatlari, marosimlari, dunyoqarashi, milliyligi, maqollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq maqollarini xalq donishmandligi deb atasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan ana shu xalq maqollarini bolaning nutqiga kiritsak, biz bu orqali ham bolada milliy dunyoqarashni singdira olamiz, ham adabiy tilimizning, milliy ma‘naviy me‘rosimizning ham yo‘qolib iste‘moldan chiqib ketishini oldini olamiz. Bola biror bir holat vaziyatga munosabat bildirayotganda ham, unga to‘g‘ri baho berib, o‘z fikrini maqollar orqali yetkazsa, uning nutqi juda ham pishiq va keng ma’noli bo‘ladi. Buning uchun har bir pedagog imkon qadar xalq maqollaridan ko‘proq foydalanishi, maqollarning ma‘no mohiyatini bolaga o‘zi tushunadigan tilda sodda tushuntirishi lozim.

Bundan tashari, xalqimiz tomonidan yaratilib avloddan avlodga sayqallanib o‘tib kelayotgan ertak, mata, topishmoq, tez aytish, lapar, qo‘shiq, hikoya va boshqa janrlar ham bevosita va bilvosita bolalarning nutqini rivojlantirishga xizmat qilish bilan bir qatorda, ularda ma‘naviy axloqni ham shakllantirib



boradi. Demak, xalqimizning ma'naviy merosini maktabgacha ta'lim tizimiga kiritish, ham ta'limiy jihatdan, ham tarbiyaviy jihatdan juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, xalq og'zaki ijodini o'rganish shunchaki badiiyatni o'rganish emas, balki ulardagi vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va hunarga kuchli e'tibor, to'g'rilik va rostgo'ylik kabi jahon xalqlariga, barcha pokdil, chin insonlarga ma'qul bo'ladigan g'oyalarni o'rganish demakdir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar folklori namunalari - ertak, maqol, tez aytish va topishmoqlardan foydalanish kerak.

Quyida biz katta guruh bolalari uchun ertaklar yordamida nutq o'stirish mashg'ulot ishlanmasi-dan namuna keltiramiz.

Mashg'ulot ishlanmasi. Mashg'ulotning mavzusi: EGRIBOY VA TO'G'RIVOY ertagini o'rgatish (Katta guruhlar uchun)

Mashg'ulotning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: bola eshitgan ertagini xulosalay olishi, qahramonlarni eslab qolishi kerak;

b) tarbiyaviy maqsad: tarbiyalanuvchilarda do'stlik tuyg'usini mustahkamlash, yordam qo'lini cho'zishlik, o'g'irlik qilmaslikka, to'g'ri so'z bo'lishga chorlash;

c) rivojlantiruvchi maqsad: tarbiyalanuvchilarda ertak yuzasidan dastlabki tasavvur uyg'otish.

Mashg'ulotning shoiri: O'g'ri bo'lma, to'g'ri bo'l.

Kerakli jihozlar: mavzuga doir ko'rgazmali qurollar, ertak asosida chizilgan rasmlar, ertakka moslangan sahna, ularga mos kiyimchalar.

Mashg'ulotning turi: Aralash

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan o'tgan mavzuni so'rab ularni rag'batlantiradi. So'ngra yangi mavzu boshlanadi. Tarbiyachi: Aziz bolajonlar, bugun sizlar bilan biz bir ajoyib ertakni o'qiymiz, sahnalashtiramiz va ijro etamiz.

Bolajonlar ertagimizning nomi — Egrivoy va To'g'rivoy. Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim-qadim zamonlarda Olatog' etagida To'g'rivoy va Egrivoy degan do'stlar bo'lgan ekan. Ular parranda va hayvonlarni ov qilib kun kechirar ekanlar. Kuz payti ekan. Kunlardan bir kuni Egrivoy va To'g'rivoy o'rmonga ov qilish uchun yo'lga chiqibdi. Ularning oldidan katta sher chiqib qolibdi va ularga tashlanmoqchi bo'libdi, shunda Egrivoy do'stini tashlab qochib ketibdi. To'g'rivoy esa o'zini o'lganga solib yotib olibdi. Sher uni hidlab, o'lib qolibdi deb qaytib ketibdi. To'g'rivoy yo'lni davom etibdi, kech tushganda daraxt



kovagiga kirib yotibdi. Kechqurun o‘rmonda o‘sha daraxtni oldida hayvonlar majlis qilibdi ... (ertak oxirigacha o‘qiladi).

Mustahkamlash jarayonida bolalar bilan – maqol va topishmoqli daqiqa o‘tkaziladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongini o‘stirishda maqol va topishmoqning yordami katta. U yordamida:

- topqirligi, tezligi rivojlanadi;
- aqliy faoliyat rag‘batlantiriladi;
- fikrlash, nutq, xotira, diqqat, tasavvur rivojlanadi;
- atrofdagi dunyo haqidagi bilim va g‘oyalar zaxirasi kengayadi.

Bu, ayniqsa, umumiy nutqi kam rivojlangan bolalar uchun to‘g‘ri keladi, chunki bu holda topishmoq bolaning to‘g‘ri nutqini tuzatish va shakllantirish uchun muhim amaliy materialga aylanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar jumboqlarning matnini tushunish va talqin qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa taxminlarning to‘g‘riligiga ta‘sir qiladi. Ertakdagi tasviriy vositalarni tahlil qilish va qahramonlarning xulq-atvorini baholash maqsadida savol-javob o‘tkaziladi.

1. Egrivoy bilan To‘g‘rivoy haqidagi fikringiz. Qaysi yaxshi bola, qaysi yomon bola?

2. To‘g‘rivoy qanday majlisga guvoh bo‘ldi?
3. Egrivoyga To‘g‘rivoy qanday sirni aytdi?
4. Egrivoy bilan To‘g‘rivoyni taqqoslang.
5. Egrivoyni hayvonlar qanday jazoladi?
6. Ertakni qayta hikoya qiling.
7. Har bir bo‘limga mos sarlavha toping.
8. Ertakga mos keladigan maqollarni o‘rgatish.

Savollarga bolalar javob beradilar. Bolalar rag‘batlantiriladi. Oxirida yuqoridagi ertakka mos keladigan do‘stlik, to‘g‘rilik, yolg‘onchilik haqida maqollar bolalarga o‘rgatiladi.

Yaxshi o‘rtoq - jon ozig‘i, yomon o‘rtoq - bosh qozig‘i

Do‘sting uchun zahar yut

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog‘chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi. Xalq og‘zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shiqlarning ko‘plari uzoq o‘tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan, voqeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi. Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan,



doviyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda xayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchilikka, makr-xiyлага nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda folklorning kichik shakllaridan foydalanish, bolaga uning barcha qobiliyatlarini namoyon etish, talaffuzini mustahkamlash va o'rgangan materiallarini nutqida ishlatishga o'rgatish imkoniyatini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Karpova S.N. Bolalarda so'z yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari // S.N. Karpova, I.N. Kolobov. M.: Drofa, 2000. 281 b.
2. Makarova V.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi pedagogik mahorat va ularni bo'lajak tarbiyachilarda shakllantirish shartlari. [Elektron resurs] V.N. Makarov. Kirish rejimi: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-umeniya-v-oblasti-rechevogo-razvitiya-detey-doshkolnogo-vozhrasta-i-usloviya-ih-formirovaniya-u-buduschih-vospitateley> (sana Kirish: 06.07.2019).
3. Fuqarolik ta'limi ("Fuqarolik tarbiyasida innovatsion o'qitish usullari" maktab-seminari tajribasidan): Qo'llanma o'qituvchilar va psixologlar uchun // L. G. Kirilyuk, V. V. Velichko, D. V. Karpiyevich, E. F. Karpiyevich. - Minsk: Texnologiya, 2000. - 175 p.
4. «Bolalarning nutqini o'stirish» o'quv-uslubiy majmua. Buxoro-2019-yil.
5. Babayeva, «Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi». Toshkent. 2018-yil.
6. Q. Shodiyeva, «Nutq o'stirish uslubiyoti». Toshkent. 2008-yil.

#### РЕЗИОМЕ

Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining nutqiy kamchiliklarini o'rganish va ularni bartaraf etish va milliy ma'naviy me'ros durdonalari vositasida rivojlantirish metodlari ko'rib chiqilgan. Bolalarga milliy ma'naviy me'ros namunalari o'rgatish orqali ularning dunyoqarashi, tarbiyasi, nutqiy madaniyatiga ijobiy ta'sir o'tkazish usullari ochib berilgan. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda xalq og'zaki ijodining tutgan o'rni, ertak va topishmoqlarning bolalar nutqini o'stirishdagi ahamiyati bayon etilgan.

#### РЕЗИОМЕ

В данной научной статье рассматриваются методы изучения и устранения дефектов речи дошкольников и их развития с помощью шедевров национального духовного наследия. Путем обучения детей образцам национального духовного наследия раскрываются методы положительно влияющие на их мировоззрение, образование, культуру речи. В тезисе описывается роль фольклора в развитии речи детей дошкольного возраста, значение сказок и загадок в развитии речи детей.

#### SUMMARY

This scientific article examines the methods of studying and eliminating the speech defects of preschoolers and developing them with the help of masterpieces of the national spiritual heritage. By teaching children examples of national spiritual heritage, methods of positively influencing their worldview, education, and speech culture have been revealed. The thesis describes the role of folklore in the development of speech in preschool children, the importance of fairy tales and riddles in the development of children's speech.